



**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYAT SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2023- YIL YANVAR - SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14271,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2023 yil yanvar-sentabr

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,8 % ga, o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 206,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2022- yil

B

1,8 %

2023- yil

B

1,5 %

Yanvar-sentabr

2023-yil yanvar-sentabr

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	14 868,5	26 541,9	11 673,4
Sharof Rashidov tumani	44 997,0	26 812,7	- 18 184,3
Zomin tumani	6 699,9	8 631,8	1 932,9
Jizzax shahri	23 006,6	128 360,5	105 353,9
Zafarobod tumani	10 432,5	8 083,9	- 2 348,6

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 62,2 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 13,0 % ni va G‘allaorol tumani 12,9 % ni tashkil etdi.

28,0 %


2022- yil

138,3 %

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-sentabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13832,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,9% ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-sentabr

93,8 %

2023-yil yanvar-sentabr

96,9 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni o'rtayuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 53,9 % (25,6 %) ni, o'rtaquyi texnologiyali 15,7 % (20,9 %) va quyi texnologiyalisi - 27,3 % (47,3 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 147,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,0 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2022- yilning yanvar –sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti



O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	27 700,4	16 401,0	-11 299,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	43 367,8	11 005,6	-32 362,2
Paxta chigiti, t.	46 747,4	24 988,0	- 21 759,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	7 095,0	5 069,1	-2 025,9
Paxta linti, t.	3 644,7	1 459,0	-2 185,7
Trikotaj polotnolar, t.	1 418,0	2 058,0	640,0

2023- yilning yanvar-sentabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 11,0 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (73,4 % kamaygan), 16,4 ming tonna paxta tolasi (40,8 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 24,9 ming tonna paxta chigiti 46,5 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

26,6 %


Paxta tolasi, t.

59,2 %


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 95,1 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 147,1 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 117,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 120,4 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1768,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 954,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 24,0 % ni tashkil etgan.

2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 28,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 107,6 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 95,7 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 116,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 77,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 %, fizik hajm indeksi 122,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 452,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 16,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 134,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 447,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 71,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 128,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 386,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 102,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 269,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 173,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,2 % ini) tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 37,4 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	229 296,6	119 907,8	-109 388,8
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	52 273,1	53 181,4	908,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	46 434,9	48 642,9	2 208,0
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	18 508,5	11 070,6	-7 437,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 0,9 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 22,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8428,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 188,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 59,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-sentabr

26,0%

2023-yil
yanvar-sentabr

9,4%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-sentabr

74,0%

2023-yil
yanvar-sentabr



90,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,4 % (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 26,0 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 24,1 % ni va Zarbdor tumani 9,1 % ni, Zomin tumani 20,2 % ni hamda Paxtakor tumani 17,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (120,4 %), Zomin tumanida (128,2 %) hamda Forish tumanida (110,9 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 6,2 % shuningdek, G'allaorol tumani 81,3 %, ni, hamda Zomin tumani 2,3 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



2023-yil yanvar-sentabr

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 4,4 % shuningdek, G'allaorol tumani 89,3 %, ni tashkil etdi.

1195,1 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-sentabr

2010,7 mlrd. so'm


2022- yil yanvar-sentabr

5044,9 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 24,1 % ni, shuningdek, Paxtakor tumani 17,7 % ni, Zomin tumani esa 20,2 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 19,6 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 48,7 % ni, Zafarobod tumani esa 8,6 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2021- yil

5679,8 mlrd. so'm

2022- yil

7901,9 mlrd. so'm

2023- yil

14271,7 mlrd. so'm



2021- yil

113,8 %

2022- yil

107,5 %

2023- yil

107,3 %

Jizzax viloyati

107,3

14271,7

Jizzax shahar

100,1

2798,9

Arnasoy

100,3

201,1

Baxmal

110,2

87,7

G'allaorol

116,8

6947,8

Sharof Rashidov

103,2

424,5

Do'stlik

100,1

698,6

Zomin

100,5

518,1

Zarbdor

102,0

269,6

Zafarobod

107,0

1230,2

Mirzacho'l

107,4

85,7

Paxtakor

106,5

518,4

Forish

101,0

442,6

Yangiobod

106,7


48,5

FHI, % da

mlrd. so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (14 497,4 ming so'm), Zafarobod (23 266,4 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (37 792,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (9 621,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 449,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,2 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 681,9 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida 2 727,9 ming so'mni, Paxtakor tumanida 2 175,1 ming so'mni, G'allaorol tumanida 37 288,9 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2752 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 746 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,1 % i) Jizzax shahriga, 387 tasi (14,1 %) Sharof Rashidov tumaniga, 323 tasi (11,7 %) G'allaorol tumaniga, 247 tasi (9,0 %) Zomin tumaniga va 175 tasi (6,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil

706 dona

2022- yil

696 dona

2023- yil

667 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil

3874 dona

2022- yil

3995 dona

2023- yil

2 752 dona

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 90 ta loyiha bo'yicha 9003,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 33,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 1087 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 113,1 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining 98,2 % ga to'g'ri kelmoqda.